Yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini oshirish yo'llari	964
K. M. Umarkulov	
"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati va uning hissasini oshirish masalalari	968
G. T. Mamajanova	
Kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashda mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	972
Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich	
Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	978
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	
Институциональные концепции устойчивого развития в рамках стратегического управления экономикой региона.....	982
Сеитова Лейла Пулатовна	
Hududlarda turistik destinatsiyalarni majmuaviy rivojlantirishda raqobatbardoshlik strategiyasini takomillashtirish istiqbollari.....	990
Mirzayev Abdullajon Topilovich	
Современное состояние развитие системы железнодорожного транспорта	994
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Relevance of Benchmarking in Industrial Enterprises.....	997
Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi	



Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	1002
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat xususiy sheriklik asosida byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning holati tahlili.....	1006
Xalilova Sh. G'	
Направления обеспечения конкурентоспособности во внешнеэкономических связях.....	1009
Ахмедов Икром Акрамович	
O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1023
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1030
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists	1034
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1039
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности	1043
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц	1049
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1055
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1058
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni	1062
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1066
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1071
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1078
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish	1083
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1087
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni	1092
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1097
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1102
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1107
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	



MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ XO'JALIGINI LIZING ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Baholash ishi va
investitsiyalar kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, mamlakatimizda 2018–2023-yillarda amalga oshirilgan lizing operatsiyalari soni, ularning qiymati hamda sohalar bo'yicha taqsimoti tahlil qilingan, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, lizing, moliyalashtirish, modernizatsiya, bitim, moliyaviy resurs, kredit.

Abstract: The article examines the opinions of the world's leading scientists on the prospects of financing agriculture on the basis of leasing in our country, analyzes the number of leasing operations carried out in 2018–2023 in our country, their value, and their distribution by sectors, and substantiates the prospects of financing agriculture on the basis of leasing in our country. conclusions and proposals were developed and recommendations for application in our country were given.

Key words: Agriculture, leasing, financing, modernization, transaction, financial resources, credit.

Аннотация: В статье рассматриваются мнения ведущих ученых мира о перспективах финансирования сельского хозяйства на основе лизинга в нашей стране, анализируется количество лизинговых сделок, осуществленных в 2018–2023 годах в нашей стране, их стоимость и распределение по отраслям. Финансирование сельского хозяйства на основе лизинга в нашей стране. На основе перспектив были разработаны выводы и предложения и даны рекомендации для применения в нашей стране.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, лизинг, финансирование, модернизация, сделка, финансовый ресурс, кредит.

KIRISH

Jahon mamlakatlari tajribasi ko'rsatishicha, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni faol jalb qilish iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala, birinchi navbatda, mamlakatning investision jozibadorligiga, xorijiy investorlarga yaratilgan shart-sharoitlarga va mamlakatda olib borilayotgan investisiya siyosatiga borib taqaladi. O'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlash, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni intensiv rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mineral xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologik ishlab chiqarish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Bunday imkoniyat va uni erishishga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samaradorligini ta'minlash ularning qay darajada va qanday shakllarda jalb qilinishiga ham bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning, texnik va texnologik qayta jihozlashning, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilashning yangi va noan'anaviy usullarining joriy etilishi eng ustuvor va muhim masaladir. Shu bois ham kichik biznesni jadal va barqaror rivojlantirish tadbirkorlardan mulkka egalik qilishi bilangina cheklanmay, balki undan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda. Bugunda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda mulkchilik munosabatlarining mulkdan foydalanish va unga egalik qilishning o'ziga xos "lizing" ko'rinishi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda lizing munosabatlari ravnaqi jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy-siyosiy sektorga



xos bo'lgan alohida xususiyatlari bilan tasniflanadi. Lizing kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishning an'anaviy bank kredit va xususiy moliyaviy resurslardan foydalanish usullariga muqobil bo'lgan o'ziga xos shaklidir. U korxonalarga zarur jihozlarni yoki transport vositalarini bir vaqtda katta miqdordagi xarajatlarsiz olish hamda ishlab chiqirish vositalarining ma'naviy eskirish bilan bog'liq yo'qotishlardan xalos bo'lish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari bo'yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib. Ulardan, mamlakatimiz olimlari Prof. J. Sinkining xulosasiga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlarning barchasida davlat qishloq xo'jaligi subyektlarini moliyalashtirish jarayonini faol tarzda qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, AQSHda tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga berilgan kreditlarning foiz stavkasini bir qismi davlat mablag'lari hisobidan subsidiyalanadi. Shuningdek, fermer xo'jaliklariga depozit, kredit va hisob-kitob xizmati ko'rsatadigan tijorat banklariga fermerlarning yer maydonlari va binolarini garovga olgan holda 40 yilgacha muddatga kredit berish huquqi berilgan ^[1].

I. Petrenko va P. Chujinovlarning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligining tabiiy iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish siklining muddati kabi xususiyatlarining mavjudligi sababli qishloq xo'jaligi kredit bozori uzluksiz amal qila olmaydi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi davlatning to'g'ridan-to'g'ri dotatsiyalar, imtiyozli kreditlar shaklida faol moliyaviy qo'llab-quvvatlashini talab qiladi. Biroq qishloq xo'jaligini davlat tomonidan kreditlanishi ko'pincha kutilgan natijalarni bermayapti. Jumladan, bu kabi kreditlarning qaytarilish darajasi pastligicha qolmoqda. Ma'lumki, qishloq xo'jaligiga ajratiladigan cheklangan davlat mablag'lari agrar sektorning kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantira olmaydi ^[2].

Q.A. Choriyev o'zning uslubiy tavsiyalarida agrar sohada innovatsion faoliyatni rag'banlashtirish bevosita va bilvosita mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, davlat tomonidan bevosita iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari davlat va maxalliy byudjetlar, kredit resurslari, xususiy sarmoyadorlar, xorijiy investorlar mablag'lari va boshqa manbalar orqali to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish o'z ichiga oladi. Bilvosita mexanizmlarni iqtisodiy richaglarining barcha turlarida, ya'ni moliya, kredit, soliq, lizing, sug'urta, bojxona va boshqa tizimlarda qo'llaniladigan imtiyozlar majmuasini tashkil qiladi ^[3].

T.X. Farmonov o'zining ilmiy ishlarida fermer xo'jaliklarini kreditlash tizimini: markaziy budjet hisobidan ajratiladigan mablag'lar, davlat ehtiyoji uchun harid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisob-kitobi bo'yicha ajratiladigan mablag'lar, turli jamg'armalar tomonidan ajratiladigan mablag'lar, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan maqsadli kredit mablag'lari, kredit uyushmalari hisobidan ajratiladigan mablag'lar, qishloq xo'jaligi texnika vositalarini lizing asosida xarid qilinishi, hamkorlikdagi korxona va tashkilotlarning zayom, kredit yoki bo'nak mablag'lari shaxsiy mablag'lar sifatida e'tirof etgan ^[4].

I.E. Ergashev tadqiqot ishida qishloq xo'jaligi birlashmalari va agroklastlar tarkibiy subyektlari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ular faoliyatida qo'shilgan qiymatni ko'paytirishni rag'batlantirish, undan moliyalashtirish manbayi sifatida foydalanish va banklari tomonidan kreditlashda kafillik taqdim etish amaliyotini kengaytirish lozimligini ta'kidlagan ^[5].

F.F. Gaforov o'z tadqiqotlarida agrar sohada lizing munosabatlarining jadal rivojlanib borishi sharoitida, lizing tushunchasini mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib ko'rsatishni tavsiya etadi. Chunki lizing investisiya faoliyatining moliyaviy vositasi sifatida lizing munosabatlari ishtirokchilariga ma'lum foyda keltiradi. So'nggi yillarda lizingga qishloq xo'jaligi texnika sotib olish jarayonining ommalashib borayotganligi kelgusida agrar sohaga ko'rsatiladigan lizing xizmatlari hajmining yanada kengayishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining texnika vositalariga bo'lgan talabning oshayotganligi sababli davlatning moliyaviy ko'magi ostida qishloq xo'jalik korxonalariga imtiyozli shartlar asosida texnikalarni lizingga yetkazib berilishi eng maqbul moliyaviy yordam hisoblanadi deb ta'kidlaydi ^[6].

Norbayev G'olibjon Toxirovich tomonidan "Lizing tizimi kreditlashning eng istiqbolli muqobil shakllaridan biri hisoblanadi. Fermer va dehqon xo'jaliklari uchun lizing bir vaqtning o'zida ikkita muhim muammoni hal etadi: texnika va uskunalarni jalb qilish va bu jarayonni moliyalashtirish. Lizing moliyaviy vazifadan tashqari ishlab chiqarish funksiyasini bajaradi, ya'ni ishlab chiqarishni moddiy-texnika shu jumladan zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlashni jadallashtirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos holda qayta tashkil etishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi" ^[7].

Bizning fikrimizcha, yuqorida aytilgan olimlar fikrlaridan kelib chiqib bugungi kun agrar sohasi uchun moliyalashtirishda tijorat banklari, lizing kompaniyalarining foiz stavkalari yuqoriligi, olingan kreditlarning qaytarish davri qisqaligi qishloq xo'jaligi korxonalari uchun asosiy muammolardan biri sanaladi. Lekin hozirda qaysi tarqoqlarga moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurligi olimlar fikridan chetda qolgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish bo'yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma'lumotlarni to'plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish, jumladan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ajratilgan tijorat kreditlarining foiz stavkalarini subsidiyalash zarur. Ushbu holat agrar soha kopxonalarining lizing va kredit to'loviga layoqatligi darajasini oshirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini lizing xizmatlari jarayonini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanish amaliyotini takomillashtirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy muammo hisoblanadi.

Lizing tadbirkorlik asosida moliyaviy resurslarni safarbar etishning zamonaviy shakli va o'z imkoniyatlari bilan kichik biznes rivojiga tez va samarali ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznes faoliyatida lizingning qo'llanilishi: moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, texnik, texnologik jihatdan muhim afzalliklarni ta'minlaydi. Biroq kichik biznes uchun eng afzali va muhimrogi iqtisodiy manfaatdorlik hisoblanadi. Moliyalashtirishning lizing shakli asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlar ochish imkoniyatini beradi. Agarda bugungi kunda fan-texnikaning oxirgi yutuqlari asosida tayyorlangan mashina va uskunalarining narxi ancha yuqoriligini hisobga olsak, rivojlanish darajasi past bo'lgan (bunda sotib olish imkoniyati cheklangan) hududlar ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun qo'llashning iqtisodiy mohiyati lizing faoliyati imkoniyatlarini yuqori baholash mumkin. Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investision bozorlar o'rtasida raqobat kuchaydi. Shu bois xo'jalik subyektlarining asosiy fondlarini yangilash, ishlab chiqarishni texnologik qayta qurollantirish sur'atlarini tezlashtirishda moliyaviy instrument sifatida yangicha noan'anaviy usul bo'lishida lizingning ahamiyati yanada kuchaydi. Buning boisi lizing bajaradigan iqtisodiy funksiyalardir, ya'ni:


- *birinchidan*, lizingda moliyaviy resurslar iqtisodiyotning real sektoriga asosiy fondlar shaklida boradi;
- *ikkinchidan*, lizing oluvchi asosiy vositalardan iqtisodiyotning tez o'zgaruvchi kon'yunkturasiga mos foydalana oladi, bu esa xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi;
- *uchinchidan*, lizing orqali investisiyalash ko'lami rag'batlantiriladi, xo'jalik subyektlarining asosiy vositalarini yangilash jarayoni tezlashadi;
- *to'rtinchidan*, iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi va ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish sur'ati o'sadi, xo'jalik subyektlari kapitallashuvi jarayoni tezlashadi.




1-rasm: Mamlakatimizda 2018–2023 yillarda amalga oshirilgan lizing operatsiyalarining soni¹

Yuqoridagi jadvaldan 2018–2023-yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning turli sohalarini modernizatsiyalash uchun amalga oshirilgan lizing operatsiyalarini ko'rishimiz mumkin. 2018-yilga nisbatan 2023-yilda amalga oshirilgan lizing operatsiyalarini soni kamayganini ko'rishimiz mumkin. Lekin 2-rasmga qaraydigan bo'lsak amalga oshirilgan lizing bitmlarining qiymati yildan-yilga oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2018-yilda 2634,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga 3925,6 mlrd so'mni tashkil etgan, ya'ni 150 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin.

¹ O'zbekiston Lizing Uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyotlandi.




2-rasm: Mamlakatimizda 2018–2023 lizing operatsiyalarining miqdori (mlrd so'm)²



3-rasm: Lizing portfelining hajmi (mlrd so'm)³

3-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, yildan-yilga lizing portfelining hajmi mustahkamlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2018-yilda 4023 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga ushbu ko'rsatkich 7357 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Ya'ni 1,8 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.



4-rasm: Yangi lizing bitimlarining asosiy vositalar turlari bo'yicha taqsimoti hajmi (mlrd so'm)⁴

2 O'zbekiston Lizing Uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyotlandi.

3 O'zbekiston Lizing Uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyotlandi.

4 O'zbekiston Lizing Uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyotlandi.



Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2023-yil yakunlariga ko'ra mamlakatimizda 3925,6 mlrd so'mlik lizing operatsiyalari amalga oshirilgan bo'lib, ushbu operatsiyalarni eng katta qismi qishloq xo'jaligi texnikalarini lizing asosida sotib olishga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 36 foiz yoki 1435,9 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Shuningdek, avtotransport 27 foiz yoki 1058,7 mlrd so'm, qurulish texnikasi va asbob-uskunlari 18 foiz yoki 685,9 mlrd so'm, texnologik uskunalar 13 foiz yoki 521,4 mlrd so'm hamda ko'chmas mulk 6 foiz yoki 223,7 mlrd so'mni tashkil etgan.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, lizing mahsulotini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol qiluvchilar, shuningdek, moliyaviy vositachilar, biznesning shu turi bilan shug'ullanuvchilar uchun bir qator muhim masalani hal etuvchi biznesning alohida turi sifatida qaraladi.

Lizing institutlari endigina rivojlanayotgan O'zbekistonda bozor munosabatlarining qonunchilik negizini shakllantirish bilan birga lizingni ham tadbirkorlikning alohida turiga aylantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli, bizning nazarimizda, lizingni investitsiyalash va moliyalashtirishning nazariy jihatlarini to'liq o'zlashtirish lizing munosabatlarini bugungi kun amaliyotiga qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillarimizdam xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda agrar soha korxonalari uchun yangi turdagi zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanish talabi ortmoqda. Shu sababli ushbu talablardan kelib chiqib "O'zagrolizing" AJ tomonidan lizinga berilayotgan texnika vositalari va hizmatlarning turlarini kengaytirib borish asosiy maqsadga aylanish kerak. Lizingga beriladigan qishloq xo'jaligi texnikalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada rivojlantirish va lizing faoliyatini diversifikatsiyalash, zamonaviy innovasion qishloq xo'jaligi texnikalari, zamonaviy issiqxonalar, chorvachilik komplekslari, qayta ishlash korxonalari va logistika markazlarini tayyor holda lizinga berishni kengaytirish lozim. Shuningdek, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashning subsidiya, kredit, soliq, dotatsiya, baho, bojxona imtiyozlari kabi iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarini bugungi iqtisodiyot talablariga mos takomillashtirish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar uchun qulay sharoitlar yaratish istiqboldagi muhim yo'nalishlar sifatida hal etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М. Альпина Паблишер., 2017. – С. 596-597.
2. Петренко И.Я., Чужинов П.И. Экономика сельскохозяйственного производства. – Алма-Ата: Кайнар, 1992. – С. 434-437.
3. Q.A. Chariyev. Qishloq xo'jaligida innovatsionlar joriy qilish tizimini shakllantirish va rag'batlantirish istiqbollari (uslubiy tavsiyalar). Toshkent. QXITI, 2014. – 32b.
4. T.X. Farmonov. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari.: i.f.d. ilm. dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.:O'zBIITI,2006. – 36-b. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/Research Work / OnlineView/34291>
5. I.E. Ergashev. Moliyaviy ta'minotni barqarorlashtirish asosida bog'dorchilik va uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish.: i.f.d. ilm. dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TMI, 2020. – 26-b. https://inlibrary.uz/index.php/development_economy/article/view/16284
6. Ф.Ф. Гафоров. Развитие рынка лизинговых услуг в агропромышленном комплексе Республики Таджикистан: афтореферат дисс. на уч степ. к.э.н. – Т.: Жалал-абад-2019. 28 с.
7. Norbayev G'olibjon Toxirovich Qishloq xo'jalik tuzilmalarini moliyalashtirish va kreditlash mexanizmining nazariy asoslari "Central asian journal of education and innovation" Volume 3, Issue 2, February 2024
8. O'zbekiston Lizing Uyushmasi ma'lumotlari <http://ula.uz/>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.